



**“YOSH KUTUBXONACHILAR” RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
FORUMI VA “INNOVATSION LOYIHALAR” TANLOVI KELAJAK
KUTUBXONASINI BIRGA QURUVCHI YOSH
KUTUBXONACHILARLARNI BIR MAQSAD YO’LIDA BIRLASHTIRDI**

*ADIB SOBIR TERMIZIY NOMIDAGI
SURXONDARYO VILOYAT AXBOROT KUTUBXONA MARKAZI
AKT VA RAQAMLASHTIRISH XIZMATI BOSH MUTAXASSISI
RAHMONOVA MUHARRAM XASANOVNA*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada "Yosh kutubxonachilar" VI Respublika ilmiy-amaliy forumi va uning doirasida tashkil etilgan "Innovatsion loyihalar" tanlovi, library quiz, qiziqarli sport bellashuvlari haqida soʻz boradi. Forum va tanlovning asosiy maqsadi — axborot-kutubxona sohasini zamonaviy yondashuvlar negizida rivojlantirish, yosh mutaxassislarning innovatsion gʻoyalari hamda istiqbolli loyihalarini amaliyotga joriy etishni ragʻbatlantirish, shuningdek, sohadagi yangi yosh isteʼdodlarni kashf etishdan iborat.

KALIT SOʻZLAR: yosh kutubxonachilar, axborot-kutubxona sohasi, library quiz, innovatsion loyihalar, tanlov, ilmiy-amaliy forum, rivojlanish, IFLA, Voices of Ancient Termiz, integratsiya, Open Access, isteʼdodlarni qoʻllab-quvvatlash.



Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan 29-30-31 iyul sanalarida "Yosh kutubxonachilar" Respublika ilmiy-amaliy forumi hamda uning doirasida "Innovatsion loyihalar" tanlovi bo'lib o'tdi.

29-iyul kuni "Yosh kutubxonachilar forumi" Respublika ilmiy-amaliy forumiga start berildi va kutubxonachilik sohasining eng faol va tashabbuskor



yoshlarini bir joyga jamlagan nufuzli anjumanning tantanali ochilish marosimi o'z ishini boshladi.





Forumning 1-kuni Toshkent shahrida joylashgan U-Enter Innovatsion Tadbirkorlik Markazida bo'lib o'tdi. Ushbu forumda Respublika miqyosida tashabbuskor, iqtidorli, innovator yosh kutubxonachilar ishtirok etishdi. Surxondaryo Viloyat Axborot Kutubxona Markazidan yosh Kutubxonachi mutaxassislar: Rahmonova Muharram va Choriyeva Farangiz ishtirok etishdi. Forumning saralash bosqichida, mazkur nufuzli tadbirda mamlakatimizning barcha hududlaridan kelgan yosh va tashabbuskor mutaxassislar o'zlarining ish faoliyatlari davomida to'plagan portfoliolari hamda sohani rivojlantirishga qaratilgan eng yaxshi yutuqlarini onlayn tarzda yoshlar.miku.uz saytida taqdim etishdi.

Tanlov ko'rsatkichlari va raqamlar:

Jami arizalar soni: 373 ta

Saralashdan o'tgan loyihalar: 12 ta

Raqobat ko'rsatkichi: Har bir o'rin uchun qariyb 31 ta ariza

Hakamlar hay'ati tomonidan kelib tushgan loyihalar innovatsionlik, kutubxonachilik faoliyatini raqamlashtirish hamda kitobxonlikni targ'ib qilish mezonlari asosida juda qat'iy va shaffof tarzda o'rganib chiqildi. Yakuniy natijalarga



ko'ra, eng yuqori baholangan 12 ta eng yaxshi innovatsion loyiha forumning asosiy bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi.

Viloyatimiz vakilining muvaffaqiyati:

Quvonarli jihati shundaki, bunday kuchli raqobat ostida kechgan saralash bosqichidan Surxondaryo viloyati Axborot-kutubxona markazi (AKM) mutaxassisi Rahmonova Muharram ham muvaffaqiyatli o'tdi.



Uning kutubxonachilik sohasiga mutlaqo yangicha yondashuv va zamonaviy yechimlarni olib kirishga qaratilgan innovatsion loyihasi ekspertlar tomonidan yuqori baholandi va eng yaxshilar qatoridan joy oldi.

Ushbu muvaffaqiyat viloyatimizda axborot-kutubxona sohasi rivojlanayotganidan hamda yosh mutaxassislarning intellektual salohiyati yuqoriligidan dalolat beradi.

1-kun Forum dasturidan ilmiy ma'ruzalar, seminar-treninglar, tajriba almashish, amaliy uchrashuvlar va malaka oshirish tadbirlari o'rin oldi. Mazkur tadbirlar orqali ishtirokchilar zamonaviy kutubxonachilikning ilg'or tajribalari bilan



tanishish, o'z kasbiy bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlash hamda soha mutaxassislari bilan fikr almashish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

2-kun "Yosh kutubxonachilar" VI Respublika ilmiy-amaliy forumi doirasida axborot-kutubxona sohasini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, istiqbolli loyihalarni amaliyotga tatbiq etishni rag'batlantirish hamda yosh iste'dodlarni kashf etish maqsadida "Innovatsion loyihalar" tanlovi tashkil etildi. Tanlovga respublikaning turli hududlaridan jami 76 ta "StartUp" loyihasi kelib tushgan.

Saralash bosqichi yakunlariga ko'ra, eng istiqbolli deb topilgan 12 ta loyiha tanlovning ikkinchi bosqichiga yo'llanma oldi. Final bosqichi ishtirokchilari o'z loyihalarini ekspertlar va tanlov hay'ati a'zolari oldida taqdim etdilar. Taqdimotlar davomida har bir loyiha uning dolzarbligi, innovatsion yondashuvi, amaliy ahamiyati, amalga oshirish mexanizmlari, barqarorligi hamda kutilayotgan ijtimoiy samaradorligi mezonlari asosida atroflicha baholandi.

Tanlov hay'ati tomonidan o'tkazilgan yakuniy baholash natijalariga ko'ra, eng munosib loyihalar Gran-pri, I, II va III o'rinlar bilan taqdirlandi.



Gran-pri sohibi sifatida Islom Svilizatsiyasi Markazi kutubxonasi mutaxassisi Qodirov Ravshan e'tirof etildi.

Tanlov g'oliblari diplom, hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar. Mazkur tanlov axborot-kutubxona sohasida yangi g'oyalar, innovatsion yechimlar va istiqbolli tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, yosh mutaxassislarning ijodiy



salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda ularning amaliy loyihalarini hayotga tatbiq etishda muhim maydon bo'lib xizmat qildi. Surxondaryo Viloyat AKM AKT va Raqamlashtirish xizmati bosh mutaxassisi Rahmonova Muharramning "Voices of Ancient Termiz audiovizual inglizcha ma'lumotlar bazasini tashkil etish hamda uni Xalqaro integratsiya qilish va Open Accesni joriy etish" mavzusidagi innovatsion loyihas 12 ta o'rindan 6-o'rinda hisoblandi.



3- kun Forum dasturi doirasida soha mutaxassislari uchun “Library Quiz” nomli intellektual jamoaviy bellashuv tashkil etildi. Unda ishtirokchilar kutubxonachilik, axborot-resurs faoliyati, adabiyot, zamonaviy texnologiyalar hamda umumiy bilimlar bo'yicha o'zaro kuch sinashdilar. Bellashuv davomida jamoalar tezkor fikrlash, mantiqiy yondashuv, hamjihatlik va bilim salohiyatini namoyon etib, qiziqarli va muvaffaqiyatli bahslarda ishtirok etdilar. Mazkur intellektual musobaqa yosh kutubxonachilar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, kasbiy bilim va ko'nikmalarni oshirish hamda do'stona muhitni yanada rivojlantirishga xizmat qildi.

Forum dasturi doirasida tashkil etilgan Sport kuni ishtirokchilarga nafaqat maroqli hordiq chiqarish, balki jamoaviy hamjihatlikni mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va o'zaro do'stona munosabatlarni yanada rivojlantirish imkonini berdi.

Sport musobaqalari shaxmat, shashka, stol tennisi, futbol va voleybol yo'nalishlarida o'tkazildi. Har bir bellashuv qizg'in bahslar, yuksak sport ruhi va muvaffaqiyatli kurashlarga boy bo'ldi.



Yosh kutubxonachilar o'zlarining nafaqat kasbiy salohiyati, balki jismoniy tayyorgarligi, jamoada ishlash madaniyati va g'alabaga bo'lgan intilishlarini ham namoyon etdilar. Surxondaryo Viloyat AKM mutaxassisi qatnashgan futbol jamoasi 1-o'rinni egalladi va esdalik sovg'alar, diplom bilan taqdirlandi. Forumning so'nggi kunida O'zbekiston Milliy Kutubxonasi direktori Alimdjanovna Umida Teshabayeva bilan yosh kutubxonachilar o'rtasida "Dildan suhbatlashamiz" shiori ostida samimiy va iliq suhbat, savol-javoblar bo'lib o'tdi.



Xulosa qilib aytganda, forumdan asosiy maqsad, Axborot-kutubxona sohasini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish hamda yosh, iqtidorli mutaxassislarni kashf etish va sohadagi innovatsion g'oyalar va istiqbolli loyihalarni amaliyotga tatbiq etishni rag'batlantirish.